


2019 yilning yanvar-iyul oylarida Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

2019 yilning yanvar-iyul oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 3851,9 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan ishlab chiqarish indeksi 101,8% ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish 39,3 % ga, tog`-kon sanoati 13,0 % ga va qayta ishlash sanoatining 4,1 % ga, o'sishi hisoblandi.

2019 yilning yanvar-iyul oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, foizda




■ Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni (sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi)

■ Qayta ishlash sanoat (sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi)

■ Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish(sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi)

■ Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash (sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi)

2019 yilning yanvar-iyul oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini sanoat ishlab chiqarishning o`shishiga qo`shgan hisssasi



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalaridan 2019 yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7,4 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajm indeksi 113,0% ni tashkil etganni kuzatish mumkin.



Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).


Qayta ishlash sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2134,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 55,4 % ni) tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-iyul oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida sanoat ishlab chiqarish indeksi 104,1 % ni tashkil etgani kuzatildi.





Hususan 2018 yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan mahsulotlar ishlab chiqarishning yuqori o'sish indeksi quyidagi faoliyat turlarida kuzatilmoqda, boshqa tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish indeksi 211,3 % ni, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish indeksi 116,5 % ni, boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarish indeksi 107,9 % ni tashkil etgani kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 5,4 % ni (2018 yilning yanvar-iyul oylarida - 5,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 5,9 % (6,1 %), o'rta-quyi texnologiyali - 18,0 % (18,0%) va quyi texnologiyali - 70,8 % (70,7 %) tashkil etdi.

Yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, %



**Yanvar-iyul oylarida Ishlab chiqaradigan sanoatda
yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2018 yil	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yil	2018 yil yanvar-iyulga nisbatan, %
	Sellyuloza, ming kg 90%		
368,1		801,0	217,6
	Un, ming tonna		
20,8		21,8	104,6
	Ho`jalik sovuni tona		
1051,0		804,5	76,5
	Kalava ip, tonna		
2633,1		1945,31	73,8
	Paxta tolasi. ming tonna		
27,1		17,2	63,3
	Paxta urug'i, ming tonna		
43,0		26,9	59,2
	Kunjara, ming tonna		
29,5		17,2	58,3
	O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna		
6,4		2,9	46,8
	Aroq – mig litr 100 % spirt		
580,5		185,9	32,0

**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash
va havoni kondittsiyalash.**



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1594,7 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 41,4 % ni) tashkil etdi.



O'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi indeksi 97,3 % ga kamayganligi kuzatildi.

2019 yilning yanvar-iyul oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash hajmi indeksi 97,3 % ni va gazsimon yonilg'ini ishlab chiqarish va taqsimlash hajmi indeksi 93,4 % ni tashkil etgani kuzatildi.

**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash sohasida
yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2018 yilning Yanvar-iyulda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yilning Yanvar-iyulda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
8984,3	<p>Elektroenergiya, mln kVt/s</p> 	8750,9	97,4
110,0	<p>Issiqlik energiyasi, mln Gkal</p> 	61,7	56,1

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 115,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,0 % ni) tashkil etdi.



O'tgan yilning mos davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 139,3 % ni tashkil etgani kuzatildi.

Shuningdek 2018 yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan hajm indeksleri shahar ho`jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz havfsiz chiqindilarini yig`ish bo`yicha xizmatlar 53,4 % ga hamda suvga ishlov berish va taqsimlash xizmatlari 6,9 % ga oshganligi kuzatildi.

Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig`ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018 yilning Yanvar-iyulda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yilning Yanvar-iyulda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
---	---	---	-------------------

Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo`yicha taqsimlash xizmatlari, mln so`mda

5567,1



7888,4

141,7

Shahar ho`jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz havfsiz chiqindilarini yig`ish bo`yicha xizmatlar, mln so`mda

1305,9




1036,6

79,4

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1446,9 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 109,5 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 37,6 % ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-iyul oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2018 yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 56,5 % dan 2019 yilning yanvar-iyul oylarida 64,3 % ga oshishi kuzatilmoqda. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari 0,8 % ni (2018 yilning yanvar-iyul oylarida 2,4 %) tashkil etdi


Yirik va kichik biznes sub'ektlari tomonidan iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi, %



Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Shirin shahri 1517,8 mlrd so'm (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 39,4 % ulushini), Sirdaryo tuman 735,3 mlrd so'm (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 19,1 % ulushini), Guliston shahri 622,2 mlrd so'm (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 16,2 % ulushini), Boyovut 179,1 mlrd so'm (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 4,6 % ulushini) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2019 yilning yanvar-iyul oylarida hududlarning sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi




Shu bilan birga eng kam ulush Oqoltin tumani 109,3 mlrd so'm (2,8 %), Xovos tumani 84,1 mlrd so'm (2,2 %), Guliston tumani 57,2 mlrd so'm (1,5 %) hissasiga to'g'ri keladi

2019 yilning yanvar-iyul oylarida hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 4622,0 ming so'mni tashkil etib tuman va shaharlarning tabaqalanishi tahlil qilinganda, Shirin shahrida 81739,7 ming so'mni tashkil etib o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan yuqoriligini ko'rsatmoqda.

2019 yilning yanvar-iyul oylarida hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi,




Tuman va shaharlar kesmida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sura'ti yuqoriligi quyidagi tumanlarda kuzatilgan, Boyovut tumanida 130,2%, Yangiyer shahrida 115,3 % hamda Oqoltin tumanida 107,4 %. Shu bilan birga o'sish sura'ti kamayishi Shirin shahrida 97,0 % va Sardoba tumanida 76,9 % ni tashkil etgan.

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

2019 yilning yanvar-iyul oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 1785,2 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan (jami sanoat mahsulotlarining 46,3 foizi) yoki 2018 yilning tegishli davriga nisbatan 113,4 foizni tashkil qilgan.

2019 yilning yanvar-iyul oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati



Sirdaryo viloyati Statistika boshqarmasi
Sanoat statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: (0371) 230-86-23